

SOTSIOLOGIYA VA PSIXOLOGIYANING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

O‘rinboyeva Rahima Oybek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
Toshkent shahar Uchtepa tumani 81 - IDUM psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sotsiologiya va psixologiya fanlarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning inson hayotidagi o‘rni hamda jamiyat rivojidadagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu fanlarning bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiologiya, psixologiya, jamiyat, shaxs, xulq-atvor, ijtimoiy muhit, tafakkur, rivojlanish, munosabatlar*

Kirish

Inson hayoti murakkab jarayon bo‘lib, unda nafaqat ichki kechinmalar, balki tashqi ijtimoiy muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli sotsiologiya va psixologiya fanlari insonni turli jihatdan o‘rganadi va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Psixologiya insonning ichki dunyosini, ya‘ni uning hissiyotlari, fikrlari va ruhiy holatini o‘rganadi. Sotsiologiya esa insonning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlari va guruhlar ichidagi xulq-atvorini tahlil qiladi.

Bu ikki fan bir-birini to‘ldiradi. Chunki insonni to‘liq anglash uchun uning ichki ruhiy holatini ham, tashqi ijtimoiy muhitini ham birgalikda o‘rganish zarur. Masalan, insonning xulq-atvori nafaqat uning shaxsiy xususiyatlariga, balki atrof-muhit, oila, do‘stlar va jamiyat ta‘siriga ham bog‘liq. Shu sababli psixologik va sotsiologik yondashuvlar birgalikda qo‘llanilganda samarali natija beradi. Sotsiologiya va psixologiyaning o‘zaro bog‘liqligi ayniqsa ta‘lim jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning xulq-atvori, o‘qishga munosabati va rivojlanishi ularning ichki ruhiy holati va tashqi muhit ta‘sirida shakllanadi.

Bu fanlar inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Psixologiya insonning o‘zini anglashiga, hissiyotlarini boshqarishga yordam beradi. Sotsiologiya esa jamiyatda to‘g‘ri yashash, ijtimoiy munosabatlarni tushunish va moslashishga ko‘maklashadi.

Shuningdek, bu fanlar turli muammolarni hal etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, nizolarni hal qilish, stressni boshqarish, jamoada ishlash kabi jarayonlarda ularning ahamiyati katta.

Zamonaviy jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar murakkablashib borayotganligi sababli sotsiologiya va psixologiya fanlariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Psixologiya inson ruhiy jarayonlarini, xatti-harakatlarini va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganuvchi fan sifatida hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Uning o‘rni quyidagicha ifodalanadi:

Shaxsiy rivojlanish

Psixologiya yordamida inson o'z fikrlash, his-tuyg'ularini boshqarish, stressga chidamlilik kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu hayot sifatini yaxshilashga olib keladi.

Munozaralar va muloqot

Psixologik bilimlar yordamida insonlar orasidagi muomalalar, oilaviy va ishdagi muloqot yaxshilanadi, tushunmovchiliklar kamayadi.

Salomatlikni qo'llab-quvvatlash

Ruhiy sog'liq haqida ma'lumotlar, depressiya, stress va boshqa psixologik muammolarni aniqlash va oldini olishda psixologiya katta rol o'ynaydi.

Ta'lim va tarbiya

O'quvchilarning xulq-atvori va o'rganish jarayonlarini o'rganish hamda ularni samarali rivojlantirishda psixologiyadan foydalaniladi.

Ish faoliyati samaradorligi

Mehnat muhitida motivatsiya, jamoa bilan ishlash, stressni boshqarish psixologik bilimlarga tayangan holda oshiriladi.

Umuman olganda, psixologiya hayotimizni yanada mazmunli, muvozanatli va samarali qilishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir.

Zamonaviy psixologiya tushunchasi

Zamonaviy psixologiya — inson psixikasini ilmiy yondashuvlar asosida o'rganib, uni rivojlantirish va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan fan sohasi hisoblanadi. U quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

Klinika va sog'liq psixologiyasi

Ijtimoiy psixologiya

Pedagogik va yosh psixologiyasi

Mehnat va tashkiliy psixologiya

Raqamli (digital) psixologiya

Bu yo'nalishlar jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllanib bormoqda.

Psixologiyaning jamiyatdagi o'rni 1. Shaxsiy rivojlanish va ruhiy salomatlik

Zamonaviy psixologiya insonning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stress, depressiya va xavotir holatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Psixologik maslahatlar orqali shaxs o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish va hayot sifati yaxshilanishiga erishadi.

2. Ta'lim tizimidagi ahamiyati

Ta'lim jarayonida psixologiya o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, motivatsiyani oshirish va iqtidorni aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Pedagogik psixologiya orqali samarali ta'lim muhitini yaratish mumkin.

3. Mehnat va boshqaruv sohasida

Tashkilotlarda psixologiya xodimlarning ish samaradorligini oshirish, jamoada sog'lom muhit yaratish va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. Ijtimoiy muammolarni hal etishda

Oilaviy nizolar, yoshlar muammolari, jinoyatchilikning oldini olish kabi masalalarda psixologiya muhim profilaktik rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologiya orqali jamiyatda sog'lom munosabatlar shakllanadi.

Zamonaviy psixologiyaning istiqbollari 1. Raqamli texnologiyalar bilan integratsiya

Sun'iy intellekt, onlayn konsultatsiyalar va mobil ilovalar psixologik xizmatlarni yanada ommalashtirmoqda. Bu esa xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

2. Psixologik madaniyatning oshishi

Jamiyatda psixologik savodxonlik oshib borishi natijasida ruhiy salomatlikka e'tibor kuchaymoqda. Bu holat psixolog mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

3. Profilaktik yondashuvning kuchayishi

Kelajakda psixologiya faqat muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki uni oldini olishga qaratilgan yo'nalishda rivojlanadi.

4. Fanlararo integratsiya

Psixologiya tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya va texnologiya bilan uyg'unlashib, yangi ilmiy yondashuvlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy psixologiya jamiyatning turli sohalarida asosiy rol o'ynaydi. Uning jamiyatdagi o'rni va istiqbollari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin.

Jamiyatdagi o'rni

Inson resurslarini rivojlantirish

Psixologiya shaxsning aqliy, hissiy va ijtimoiy salohiyatini aniqlash va rivojlantirish vositasi sifatida ishlatiladi. Bu ta'lim, mehnat va sog'liqni saqlash sohalarida samarali faoliyat yuritishga yordam beradi.

Psixologik xizmat ko'rsatish

Ruhiy sog'liqni saqlash, stresslarni boshqarish, ijtimoiy muammolar va shaxsiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda psixologiyadan keng foydalaniladi. Bu jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatni rivojlantirish va boshqarish

Ijtimoiy psixologiya guruhlar va jamiyat xatti-harakatlarini o'rganib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning samarali boshqarilishini ta'minlashga yordam beradi.

Sotsiologiya fanining rivojlanishi qadimgi antik davrlardan boshlandi. Antik dunyo sotsiologiyasi jahon sotsiologiya maktabining nazariy-psixologik asosi va unga uzluksiz ilhom beruvchi bebaho me'ros boyliklari bo'lib hisoblanadi.

Antik dunyo sotsiologiyasining o'zi yuzaga kelgan davrdagi sotsial sistema va tartiblari, davlat va jamiyat qurilishi, shu sistemalardagi shaxslarning o'rni va roli, siyosiy va manaviy turmush protsesslari aniq va real dalillovchi sifatida juda kuchli saboq bo'lib hisoblanadi. Antik davr sotsiologiyasining birinch namunalari Kichik Osiyoning g'arb taraflari Ioniya elidagi shaharlarda yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi. Antik

dunyo sotsiologiyasining paydo bo‘lishi hamda rivojlanish tendensiyalari o‘zgachaliklaridan kelib chiqqan holda uni shartli ravishda guruhlariga bo‘lish mumkin.

1. Eng qadimgi grek sotsiologiya maktabi. Bu guruhga eramizdan oldingi XII asrda yashab mehnat qilgan Gomerdan boshlab eramizdan oldingi VI asrgacham xizmat qilgan Milet maktabi vakillari hamda Gretsiyaning turli shaharlarida yashab harakat qilgan Ksenofan Pifagorning sotsiologik ko‘z qarashlarini kirishi mumkin.

2. Grek demokratiyasi rivojlanish davri sotsiologiyasi. Bu bosqichda jamiyattanuvchilar ya‘ni jamiyatshunoslar qatoriga Geraklit, Parmenid, Zinon, Empidoki, Anoksagor, Prtagor, Gariy va boshqalarini keltirish mumkin.

3. Antik dunyoning „oltin davri“. Bu davrdagi sotsiologik ko‘z-qarashlarni ilgari surgan olimlar qatoriga insoniyatning ulkan donishmandlari Sokrat, Levkipp, Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalarni kiritish mumkin.

Bu davrda Aristotel o‘z davridagi bor bo‘gan strafikatsiyali ya‘ni sotsiologik qatlamlashish tartiblarini qo‘llab-quvvatlashdi. Aristotel komil inson, komil fuqaro, adolatli mamlakat, tomonidagi ko‘z qarashlarni ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o‘z davlatiga bo‘lgan katta vatanparvarligi, o‘z ijtimoiy-siyosiy tuzimiga sodiqligini shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiya bo‘lsa har taraflama shakllangan davlat qoidasini yuzaga keltirishdan boshlanadi.

Demak komillik sistemasidagi „mamlakat-fuqaro-inson“ qoidasi Aristotelning davlat va jamiyatni yetishtirishdan iborat sotsiologik konsepsiyasini paydo qildi. U jamiyat a‘zolarining ma‘naviy-ideologik tarbiyasi masalasida umumiy mamlakat tarafida turdi. Jamiyatning tarbiya vazifasi individual shaxslar yoki ayrim guruhlar qo‘liga topshirib qo‘ymasligi lozim. Aristotel davlat va jamiyatning ideal maqsadlari bir qo‘l ostida, umumiy bo‘ganligi sababli va mazmunli asosi bir xil bo‘lgan tarbiyaviy sistema ishga tushishi kerak deb hisoblaydi.

Shu tariqa sotsiologiya rivojlana boshlaydi. Sotsiologiya zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto“, shuningdek Konfutsiy, o‘zbek namoyondalarining ya‘ni Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Xaldun, Ibn Sino, Yusuf Hos Xojib kabi buyuk allomalarning asoslari orqali rivojlana boshlaydi.

Keyinchalik sotsiologiya fan sifatida rivojlana boshlaydi. Sotsiologiya fan sifatida rivojlana boshlaydi. Sotsiologiyani “Nazoratga asoslangan fan darajasiga” ko‘tarish talabini fransuz utopsiti Sen-Simon, Sharl Fure va Robert Ouenlar olga surgan. Ular XVIII asr 2-yarmida bu fanning ayrim masalalariga o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan.

Psixologiya va sotsiologiya uyg‘unligi — bu insonning ichki ruhiy dunyosi (psixologiya) va uning jamiyatdagi ijtimoiy hayoti (sotsiologiya) o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishidir.

Oddiy qilib aytganda, bu — insonning qanday fikrlashi va his qilishini (psixologiya) uning jamiyatda qanday yashashi va munosabat qurishi (sotsiologiya) bilan birga tushuntirish demakdir.

Psixologiya insonning:

- hissiyotlari;
- tafakkuri;
- xulq-atvori sabablarini o‘rganadi.

Sotsiologiya esa:

- jamiyatdagi munosabatlar;
- guruhlar ta’siri;
- ijtimoiy muhitni o‘rganadi.

Ularning uyg‘unligi shundaki, inson xulqi faqat ichki omillar bilan emas, balki tashqi ijtimoiy muhit ta’sirida ham shakllanadi. Masalan:

- bola oilada qanday muhitda ulg‘aysa, uning psixologiyasi shunga mos rivojlanadi;
- do‘stlar va jamiyat inson fikrlashiga ta’sir qiladi;
- stress yoki muammo ko‘pincha ijtimoiy sabablar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bu uyg‘unlik ayniqsa quyidagi sohalarda muhim:

- ta’lim jarayoni;
- tarbiya;
- ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- insonlar o‘rtasidagi munosabatlar.

Psixologiya va sotsiologiya uyg‘unligi insonni to‘liq tushunishga yordam beradi. Bu ikki fan birgalikda insonning ham ichki dunyosini, ham jamiyatdagi o‘rnini anglash imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sotsiologiya va psixologiya insonni har tomonlama o‘rganadigan, bir-birini to‘ldiruvchi fanlar bo‘lib, ular insonning shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyatda muvaffaqiyatli yashashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Istoriya sociologicheskix ucheniy: Drevniy Vostok. M., 1950. B. 230.
2. Kak provedi sociologicheskoe issledovanie / Red. M.K. Gorshkov, F.E. Sheregi. -M., 1990.
3. Kravchenko A.I. Sociologiya. -M.: «PERSE-Logos», 2006.
4. Levada Yu.A. Socialnaya struktura i socialnye gruppy. Lekcii po sociologii. M., 1999.
5. Aron, R. Sotsiologik fikrning rivojlanish bosqichlari / R. Aron; jami ed. va so'zboshi P. S. Gurevich. - M.: Taraqqiyot - Siyosat, 1992. - 608 b
6. Weber, M. Iqtisodiyot va jamiyat: Sotsiologiyani tushunish bo'yicha insholar: 4 jildda / Maks Weber; [tarjima. nemis tili bilan]; komp., jami. ed. va oldingi. L. G. Ionina. - M.: nashriyot uyi. Oliy Iqtisodiyot maktabi uyi, 2016. - T. I. Sotsiologiya. - 445 s.

7. Weber M. Iqtisodiyot va jamiyat: sharhlovchi sotsiologiyaning konspekti. Berkeley, Kaliforniya universiteti matbuoti, 1978. 1469 p
8. ZIYO.NET